

XALQ ERTAKLARI O‘QUVCHILARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING SAMARALI VOSITASI

Fattullayeva Mahzuna Maqsud qizi

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi

7-1BTU-21 guruh magistri Telefon: 91 414 14 55

Annotasiya: Maqolada o‘quvchilarning ertak o‘qitishda nazariy asoslariga katta ahamiyat bergan holatda, xalq ertaklari o‘quvchilarning axloqiy tarbiyalash, pedagogik amaliyot davrida ulardan foydalanish ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Ertak, xalq ertak, poetik ijod, sehrli zarguzasht, nasr, epik badiiy asar

Ertak — xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Ertak — xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar.

Inson qadim zamonlardan buyon tabiat kuchlarining mohiyatini anglash, ularni o‘ziga bo‘ysundirish, dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tushunish, adolat, baxt-saodatni orzu qilgan. Barcha xalqlarning orzu-niyatlari aslida bir-biriga hamohang bo‘lsa-da, ularni har bir xalq o‘zicha ifodalagan. Xalqlarning ana shu orzu-niyatlari ifodasi o‘laroq xalq og‘zaki ijodida ertak janri maydonga kelgan. Xalq ertaklari barcha xalqlar og‘zaki ijodiga xos qadimiy janrdir. Har bir xalq ertaklarida mazkur xalqning dunyoqarashi, milliy "Ahmadjon bilan Luqmonjon" ertagiga ishlangan rasm xarakteri, sinfiy munosabatlari, turmushi ma‘lum darajada o‘z ifodasini topadi. Ertaklar hayot haqiqatini xayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlaganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea-hodisalarning ajoyib-g‘aroyib holatlarda kechishi, qahramonlarining g‘ayritabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, go‘zal shakllari, sodda va teran mazmuni bilan bizgacha yetib kelgan ertaklarning badiiy kuchi — ularning xalq orzu-umidlari va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unligida, kishilarning ruhiyatini o‘zida aks ettirishida, kattalarga ham, kichiklarga ham birday yoqimli, qiziqarli bo‘lishidadir.

O‘zbek xalq ertaklari, odatda, saj' (nasrdagi qofiya) usulida yaratiladi va «Bor ekan-da, yo‘q ekan, och ekanda, to‘q ekan...» singari an’anaviy kirish bilan boshlanadi hamda «...murod-maqсадlariga yetibdilar», degan an’anaviy tugallanma (xulosa) bilan yakunlanadi. Ertaklarda xalqning badiiy ijodga, boy taxayyuloti (fantaziyasi)ni ifodalashga intilishi aks etadi. Zero, hayotdagi buyuk kashfiyotlar ham, odatda, to‘qimalardan, ijodiy tasavvurdan yaraladi. «Uchar gilam», «Zangori gilam» kabi mashhur xalq ertaklaridagi qahramonlar bundan minglab yillar oldin osmonga ko‘tarilish, parvoz qilishni orzu qilib, ko‘z ilg‘amas masofalarni uchar

gilamlarda bosib o'tgan edilar. Masalan, uchar mashina — samolyot ayni ana shu sehrli ertak mahsuli, ertaklardagi uchar gilamning hayotdagi aksidir. Albatta, uchar gilam bilan samolyot o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor, lekin bunda insonning ko'kka parvoz qilish haqidagi asriy orzulari ro'yobga chiqdi.

Shuningdek, ertaklarimizda baxt-saodatli kunlarga erishish, odil podsho, farovon hayot orzusi nihoyatda keng yoritilgan. «Ur, to'qmoq!» ertagida esa kambag'al, sodda chol erkin, farovon hayotni qidiradi. Chol oyog'i singan laylakni davolagani uchun sehrli buyumlar bilan mukofotlanadi. Bu buyumlar cholga yordam qiladi. «Ochil dasturxon» chol bilan kampirni to'yg'izsa, «Gazla, gazim» ularni kiyintirish, «Ur, to'qmoq!» esa zolim podshoni urib, yo'q qiladi va o'rniga kambag'al chol podsho bo'ladi. Xalq ertaklari o'zining teran mazmuni (syujeti) va katta-kichikka birday tushunarlilik, orzularining beqiyosligi va niyatlarining olijanoblighi bilan barcha yozuvchilar diqqatini jalb etgan.

Xalq ertaklari o'quvchilarning aqliy tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, ertaklar – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Ertaklardagi tarbiyaning samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

Ertaklardagi mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalardan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz. Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarur ekanligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov Bakhtiyor Rakhmonovich, Adizova Nodira Bakhtiyorovna Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District Middle european scientific bulletin 2021/3/12
2. Adizova N. B. The Role Of Ethnotoponyms In The Bukhara District Microtopony //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 131-134.
3. Adizova, Nodira Bakhtiyorovna. "The role of ethnotoponym in the toponym of bukhara district." Theoretical & Applied Science 1 (2020): 414-416.
4. Adizova, Nodira. "Nominal description of the bukhara." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2.11 (2021): 330-335.

5. Nigora, Adizova, and Adizova Nodira. "Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari." Conferences. 2021.
6. Bakhtiyorovna, Adizova Nigora, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "The role of the fun genre in children's spiritual development." Middle European Scientific Bulletin 4 (2020): 38-40.
7. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." Middle European Scientific Bulletin 10 (2021).
8. Bakhtiyorovna, Nodira Adizova. "Place Names and Related Concepts Study." European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 14 (2022): 153
9. K. Qosimova va b. Ona tili oqitish metodikasi. – T.: Noshir. 2009.
10. S. Matchonov. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg'unligi. Til va adabiyot ta'limi. 7-son, 2020.
11. Masharipova U. "Badiiy asarlarni idrok etishga tayyorlash". // Boshlang'ich ta'lim, 2010, №4.
12. Aql bilan davlat. Xalq ertaklari to'plam. – T.: O'qituvchi, 1995.
13. Jumaboyev M. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. – T., 1996.
14. Jumaboyev M. Kichkintoylarning katta adabiyoti. – T., 2002.